



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2022 - yil 31 - yanvar

88-8-0-Q/22

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Qiziriq tumani “Navro‘z” mahallasi hududidan “Maktabgacha ta’lim tashkiloti” binosi
qurilishi uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasiga va Vazirlar Mahkamasining “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qaroriga asosan hamda Qiziriq tumani hokimligining 2022-yil 7-yanvardagi 01-03/006-son xatini inobatga olib (“YERELEKTRON” AAT ID raqami Y-1722215/B-14362),

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Qiziriq tumani “Navro‘z” mahallasi hududidan tuman hokimligi zaxira yer fondidan qishloq xo‘jalik xaritasining 216q-dala konturidagi 0,5 gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydoni yangi zamonaviy tipdagi “Maktabgacha ta’lim tashkiloti” binosi qurilishi uchun tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (M.Abduraxmanov)ga ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borish yuklatilsin.

3. Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer chegaralarini joyida (naturada) belgilashni amalga oshirsin va yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritish hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Viloyat Qurilish bosh boshqarmasi (K.Eshmatov) qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish ishlarining loyiha-smeta hujjatlariga muvofiqligini monitoring qilib borsin.

5. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida (surxondaryo.uz) e’lon qilinsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari A.Xidirov

zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.